

KOSON TUMANI AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI
O'ZGARISHINING TARKIBIY XUSUSIYATLARI

*Sharipova Asila Shuxrat qizi - magistrant,
Qarshi davlat universiteti, Qarshi, O'zbekiston.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati Koson tumanining aholisi va mehnat resurslarida bo'lgan tarkibiy va miqdoriy o'zgarishlar, aholining milliy, yosh-jins va xududiy tarkibi va mehnat guruhlari statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish, aholi soni, qo'riq yerlar, mehnat resurslari

Аннотация: В данной статье с использованием статистических данных и научной литературы проанализированы структурные и количественные изменения населения и трудовых ресурсов Косонского района Каракалпакской области, национальный, половозрастной и региональный состав населения и трудовых групп.

Ключевые слова: рождение, смерть, естественное воспроизводство, население, заповедные земли, трудовые ресурсы

Annotation. In this article, using statistical data and scientific literature, the structural and quantitative changes in the population and labor resources of the Koson district of the Kashkadarya region, the national, gender, age and regional composition of the population and labor groups are analyzed.

Key words: birth, death, natural reproduction, population, reserved lands, labor resources

2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra Koson tumaning aholisi 297,5 ming kishi bo'lib, Qashqadaryo tumanlari orasida aholi soni jihatidan birinchi o'rinda turadi. Hozirgi vaqtida tumanda aholining bir yillik o'sish darajasi 2,9 % ga teng bo'lib, 5 ming kishina tashkil etadi.

Kishilarning moddiy, maishiy turmushining hamda sog'liqni saqlash ishlarining yaxshilanishi tufayli o'lim keskin kamayib aholi sonining tabiiy o'sish sur'ati ancha tezlashdi, faqat keyingi ikki yil mobaynida (2020-2022 yillar) viloyat bo'yicha aholining umumiy soni 78,5 ming kishiga ko'paygan holda tuman aholisining umumiy soni 10,3 ming kishiga ortdi.

1999-2022 yillarda tumanda aholi sonining ko'payishi ancha yuqori bo'ldi. Tuman aholisining shakllanishiga tug'ilishning nisbatan yuqoriligi hamda boshqa hududlardan keladigan aholi harakatining kuchayishi ham sabab bo'ldi. Natija tuman aholisi 175,1 ming kishidan (1999 yil) 297,5 ming kishiga (2022 yil) ko'paydi. Keyingi

yillarda aholining o‘rtacha yillik o‘sishi 2,9% ni tashkil etdi. 1999-2022 yillarda tuman aholisining soni 58.8 % ga ko‘paydi. Aholi sonining bunday tez sur’atlar bilan o‘sishida tabiiy ko‘payish bilan bir qatorda mexanik ko‘payish ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Aholining tabiiy ko‘payishi har ming kishi hisobiga tug‘ilganlar sonining o‘lganlar soniga nisbatan bo‘lgan tafovuti bilan belgilanadi. Ma’lumki, aholi sonining o‘sish darajasi uning tabiiy kupayishiga, ya’ni tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatgichiga bog‘liqdir. Biroq respublikaning hamma viloyatlari kabi Qashqadaryo viloyatida ham buydoqlar sonining ozligi, yosh jihatidan barvaqtroq nikoxlanish va mahalliy millatlar o‘rtasida aholi harakatining sustligi aholining tabiiy ko‘payishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillar hisoblanadi. Shu sababli ham 1996-98 yillarda Koson tumanida aholining o‘rtacha yillik ko‘payishi Qashqadaryo viloyati aholisining o‘rtacha yillik ko‘payishi ko‘rsatgichida yuqori bo‘ldi.

Aholining mexanik ko‘payishi Qashqadaryo viloyatida ayniqsa 1960 yillardan keyingi davrda ro‘y berdi. Chunki yangi yerlarning o‘zlashtirilishi hamda tabiiy manbalarning ishga solinishi munosabati bilan O‘zbekistonning viloyatlaridan aholining ko‘chib kelishi ham umumiy aholi sonining ko‘payishiga olib keldi. 1990-2022 yillarda Qashqadaryo aholisi 3,1 marta ko‘paydi. Qashqadaryoda aholining respublikaga nisbatan tez o‘sishi 70-yillardan boshlanib viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining tez o‘sganligi bilan bog‘liqdir. O‘tgan yillar davomida viloyatda Qarshi cho‘li bag‘ridan 250 ming ga.dan ko‘proq yangi yerlar o‘zlashtirildi. Ko‘plab qurilish materiallari, yengil va oziq-ovat hamda yoqilg‘i-energetika sanoati korxonalari ishga tushirildi. Shuningdek suv inshootlari, aloqa qilish yo‘llari madaniy va maishiy binolar hamda turar joylar bunyod etildi. Viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etishi O‘zbekiston boshqa viloyatlaridan ko‘plab aholining ko‘chib kelishiga sabab bo‘ldi. Natijada tashqaridan keladigan aholi hamda tabiiy o‘sish hisobiga viloyatda aholi soni ham muntazam o‘sib bordi.

Koson tumanidan tug‘ilishning ancha yuqori darajada saqlanib turishi bilan bir qatorda aholining moddiy va madaniy turmush darajasining o‘sishi, tibiyy xizmatning yaxshilanishi tufayli aholi o‘rtasidagi o‘lim darajasi kamaydi. Tumanda 2021 yil holatida har 1000 kishi hisobiga tug‘ilish 30.1 kishi, o‘lim 4.3 kishiga (2021) teng bo‘lgan holda, tabiiy ko‘payish 25.8 promilleni tashkil qilmoqda. Tabiiy o‘sish bo‘yicha Koson tumani hozirgi paytda viloyatda to‘rtinchı o‘rinda turadi.

Mehnat resurslarining shakllanishi va ularning hozirgi hamda kelajak sonini hisoblash, aholining takror barpo qilinishi kabi omillar aholining yoshi va jinsiy tarkibiga ham bog‘liqdir. Urushdan keyin 1959 yilda o‘tkazilgan aholi ruyxati yakuniga ko‘ra birinchi marta erkaklar viloyat aholisi tarkibida 48,1 % ni tashkil etdi. Urushdan keyingi o‘tgan davrda viloyat aholisining jinsiy tarkibida erkaklar bilan ayollarning soni sekin-asta tenglashib borishi kuzatilgan bo‘lsa, 2021 yil holatida

tuman aholisining 150.9 ming nafarini (50.7 foiz) erkaklar va 146.6 ming nafarini (49.3 foiz) xotin-qizlar tashkil etgan.

Koson tumanida tabiiy o'sishning yuqoriligi aholining yosh tarkibiga katta ta'sir ko'rsatadi. Viloyatda barcha aholi orasida yosh bolalar va o'smirlar salmog'i ancha yuqori. Bu esa kelajakda nikohlanish darajasining yuqori bo'lishini, mehnat resurslari sonining muttasil oshib borishini ta'minlaydi.

Tuman aholisining yosh-jinsiy tizimining hozirgi holati kelajakda aholining takror barpo qilinishi imkoniyatlari va mehnat resurslari safining to'ldirib borishi jihatidan ancha qulay hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati shahar aholisi ulushi bo'yicha respublikada oxirgi o'rnlardan biri egallaydi. Bu esa viloyatda sanoat ishlab chiqarishi ancha sustligini ko'rsatadi. 1926-1991 yillar davomida viloyatda shahar aholisining ulushi 8,8% dan (1926 yil) 26,3% ga (1991 yil) ko'paydi. Shu davr ichida respublikada shahar aholisining ulushi 20,8% dan (1926 yil) 40,3% ga (1991 yil) o'sdi. Hozirgi paytda viloyatdagi shaharlar orasida Koson shahri 3-o'rinda turadi. Va bu shaharda 63 ming kishi yashaydi. Bu aholi punkti shahar sifatida 1960 yillardan keyin tez rivojlandi. Chunki 1960 yillardan keyin tuman markazi bo'lgan Koson shahrida sanoat korxonalari, turar joylar barpo etildi. Natijada shahar aholisi soni o'sib bordi.

Aholi sonining ko'payishi bilan uning geografik tarqalishi hamda zichligi o'zgardi. 1926 yilda viloyatda aholining o'rtacha zichligi har bir kv.km.ga 12 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda 115,3 kishiga yetdi. Biz o'rganayotgan Koson tumanida aholi zichligi 158,2 kishiga teng. Lekin aholi zichligi hamma tumanlarda bir xil emas. Azaldan sug'orilib qilinadigan Qarshi, Kasbi, Shahrisabz, Yakkabog', Kitob tumanlarida aholi nisbatan zich joylashgan. Tog'li va cho'l yerlarda aholi siyrak joylashgan. 1970 yillardan boshlab viloyatning Nishon, Mirishkor, Koson tumanlarida yangi yerlarni o'zlashtirish munosabati bilan chetdan ko'chib kelganlar hisobiga aholi zichligi ancha oshdi. Hozirgi paytda viloyatda Muborak, Mirishkor, Dehqonobod tumanlarida hamda Qamashi, Chiroqchi, G'uzor tumanlarining yaylov qismlarida siyrak joylashgan. Chunki yaylov hududlarda faqat chorvachilik bilan bog'liq bo'lgan aholigina yashaydi.

Qashqadaryo viloyatining boshqa tumanlari kabi Koson tumanida ham ko'p millat vakillari yashaydi. Lekin aholining asosiy qismini o'zbeklar tashkil etadi. Undan tashqari tojiklar, ruslar, tatarlar, turkmanlar va boshqa millat vakillari ham uchraydi. 1989 yilda o'tkazilgan aholi ruyxati ma'lumotlariga ko'ra, tumanda 10 dan ortiq millat, milliy guruhlar va elat vakillari yashaydi. Temir yo'llarning o'tkazilishi, yangi yerlar va tabiiy boyliklarning o'zlashtirilishi munosabati bilan tumanning boshqa mintaqalar bilan migratsiya aloqalari kuchaydi va tuman ko'p millatli rayonga aylandi.

Tuman aholisining 90% ini o'zbeklar tashkil etadi. O'zbeklar qadim zamonalardan buyon paxta, g'alla yetishtirish, bog'dorchilik va uzumchilik hamda chorvachilik bilan

shug‘ullanib kelganlar. Tojiklar, ruslar, tatarlar va boshqa millat vakillari asosan Koson shahrining o‘zida yashaydilar.

Mehnat resurslaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanish ijtimoiy ishlab chiqarish imkonini beradi, shu sababli mehnat resurslarining soni, o‘sish darajasi, malakali butun viloyat miqyosida va ayniqsa tumanlar ishlab chiqarishning ixtisoslashishi va hududiy tashkil etilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Viloyatda mehnat resurslarining absolyut o‘sishiga qaramasdan ularning barcha aholi ichidagi salmog‘i katta yoshdagi kishilarning mehnat yoshidan chiqib ketayotganligi tufayli nisbatan kamaymoqda. Lekin tumanda umumiy aholi tarkibida mehnat resurslarining ulushi hamon katta. 2022 yil ma’lumoti bo‘yicha uning ulushi 52,7 % ni tashkil etadi. Bundan keyin ham mehnat resurslarining absolyut ko‘payishi kutiladi. Bu esa viloyatda hamda tumanda yangi-yangi ish joylarini tashkil etishni taqozo etadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan mehnatga layoqatli aholining salmog‘i mehnat resurslaridan foydalanishning asosiy ko‘rsatgichidir. Tumanda bu kursatgich nisbatan past bo‘lib 35,1 m.k.ni tashkil etadi. Aholining qolgan 35,6% ni ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olayotgan o‘quvchilar, uy va shahsiy tomorqa xo‘jaligida band bo‘lgan kishilardir. Serfarzand oilalar ko‘p bo‘lgan Koson tumanida ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan aholining salmog‘i nisbatan sanoati rivojlangan tuman kursatgichlaridan ancha past. Shu sababli aholining mehnatdagi faolligini oshirish maqsadida keljakda yirik qishloqlarda mahalliy sanoat korxonalarini, shaharlardagi katta korxonalarning filiallarini hamda keng xalq iste’moli buyumlari ishlab chiqaradigan qo‘shma korxonalarni qurish lozim.

Koson tumanida iqtisodiy faol aholining xalq xo‘jalik tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanish va o‘sish darajasi (ming kishi hisobida).

Aholining tarmoqlar bo‘yicha bandligi	2000	2010	2020
Jami xalq xo‘jaligida band bo‘lganlar	35,1	34,6	95,2
Jumladan:			
Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari	27,1	25,1	38,2
Shundan:			
Sanoat, qurilish, transport, aloqada	5,2	5,1	8,7
qishloq xo‘jaligida	20,0	17,8	29,5
Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida	8,0	9,5	47,0

Jadval Koson tumanı pasporti ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Tumanning moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari orasida sanoat, qurilish, transport va aloqada ishlovchilar soni ham ortib bormoqda. Bu esa tumanda ana shu tarmoqlarning keyingi yillarda rivojlanganligini ko‘rsatadi. 2016-2021 yillarda yengil oziq-ovqat, mahalliy sanoat hamda qurilish va boshqa tarmoqlarining rivojlantirilishi tufayli ularda band bo‘lganlarning soni 1,5 ming kishiga ko‘paydi.

Moddiy ishlab chiqiarish tarmoqlarida iqtisodiy faol aholi katta qismining qishloq xo‘jaligida bandligi hozirga qadar qishloq xo‘jaligida mehnat unumdarligining uncha yuqori emasligi va qo‘l mehnatidan ko‘p foydalanilayotganligini ko‘rsatadi. Kelajakda xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlaridagi kabi qishloq xo‘jaligida ham fantexnika taraqqiyotining roli oshib bordi. Natijada qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan aholining bir qismini xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga jalb qilish imkoniyati tug‘iladi. Shu tufayli qishloq yoshlaridan industrial mehnatga malakali ishchilar, muxandis-texnik xodimlar va boshqa turli hunar o‘rgatadigan akadem litseylar, hunartexnika kollejlari tashkil qilish hamda oliv bilimgohlarni ko‘paytirish lozim bo‘ladi. Undan tashqari aholiga turli xizmat ko‘rsatadigan sohalarni rivojlantirish tumanning o‘sib borayotgan layoqatli aholisini ish bilan ta’minlash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asanov G.R. Sotsial – iqtisodiy geografiya: termin va tushunchalar izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1990. – 248 b.
2. Ahmedov E.A. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarda. –T.: Abu Ali Ibn Sino, 2002. – 224 b.
3. Kashka – darinskaya oblast. Tom II . Ekonomiko – geograficheskaya xarakteristika. Otvestvenniy redaktor prof. L. N. Babushkin. T.: Izdatelstvo SAGU, 1959. – 244 s.
4. Soliyev A.S. Shaharlar geografiyasi. Ma’ruzalar matni – T.: O‘zMU, 2000.
5. Soliyev A., Nazarov M. O‘zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). T.: “Fan va texnologiya”, 2009. – 212 b.
6. Koson tumani pasporti, statistik to‘plam, Qarshi – 2022 y.